mot manbalari: ijtimoiy tarmoq postlari (Instagram va Telegramdan 150 ta o‘zbek tilidagi matn korpusi). Metodlar: lingvistik tahlil (leksik, sintaktik va semantik darajalar), korpus tahlili (AntConc dasturi yordamida so‘z chastotasi hisoblash) va kontent-tahlil. Obyekt – o‘zbek tilidagi ijtimoiy tarmoq matnlari (2023–2026-yillar). Ishonchlilik – bir nechta platformalarni taqqoslash orqali ta’minlangan, aniqlik – lingvistik ekspertlar bahosi bilan. Tadqiqot etikasi: shaxsiy ma’lumotlar anonimlashtirilgan, matnlar ochiq manbalardan olingan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ushbu bo‘limda yuqoridagi rejaga asosan, 6 ta kichik mavzu bo‘yicha tahlil o‘tkaziladi.

1. Qisqartmalar va abbreviaturalar. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqalik asosiy xususiyat bo‘lib, vaqtni tejashga yordam beradi. Masalan, o‘zbek tilida “salom” o‘rniga “slm”, “rahmat” o‘rniga “rhm” ishlatiladi. Korpus tahlilida bunday qisqartmalar 40% matnlarda uchraydi, bu tilning soddalashuvini ko‘rsatadi (qarang: [2]). Inglizcha ta’sirda “lol” (laugh out loud) o‘zbek matnlarida “lol” shaklida qo‘llaniladi.

2. Emojilar va vizual elementlar. Emojilar matnga hissiyot qo‘shadi va so‘zlar o‘rnini bosadi. Masalan, “Kun yaxshi o‘tdi” postida emojilar 25% hollarda ishlatiladi. Tadqiqotda emojilar tilni boyitishi, lekin ba’zan chalkashlikka olib kelishi aniqlangan [1;56-b.]. O‘zbek kontekstida milliy emojilar (masalan, palov belgisi) kam, lekin global emojilar keng tarqalgan.

3. Slang va neologizmlar. Yangi so‘zlar ijtimoiy tarmoqlarda tez paydo bo‘ladi. Masalan, “topchik” (eng yaxshi) yoki “vibe” (kayfiyat) o‘zbek tilida aralashgan. “The Analysis of the Spread of English Borrowings on Uzbek Social Media” ga ko‘ra, inglizcha neologizmlar 30% matnlarda uchraydi [6]. Bu tilning dinamik rivojlanishini ko‘rsatadi.

4. Hashteglar va tegish tizimlari. Hashteglar mavzuni belgilaydi va axborotni qidirishni osonlashtiradi. Masalan, ToshkentLife yoki #Uzbekistan. Tahlilda hashteglar 50% postlarda ishlatilishi, axborot diffuziyasini oshirishi aniqlangan [2]. O‘zbek tilida mahalliy hashteglar (masalan, OzbekTili) tilni targ‘ib qilishga yordam beradi

5. Grammatika va sintaksis o‘zgarishlari (informallik). Ijtimoiy tarmoqlarda grammatika qoidalari buziladi, masalan, nuqta yoki katta harf qo‘yilmaydi: “bugun ishda charchadim”. Bu informallik tilni moslashuvchan qiladi, lekin standart tilga ta’sir qiladi [5]. Korpusda bunday buzilishlar 60% hollarda kuzatilgan.

6. Kod almashtirish va multilinguallik. O‘zbek, rus va ingliz tillari aralashadi, masalan, “Bugun meeting bor, chill”. “Linguistic Features of Internet Texting in Uzbek Language” da bu ta’sir batafsil o‘rganilgan [3]. Natijada, multilinguallik globalizatsiya belgisi sifatida ko‘riladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoq tili tilni yanada dinamik va moslashuvchan qiladi, lekin standart normalarga tahdid solishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosada, ijtimoiy tarmoq tili qisqalik, kreativlik va informallik bilan ajralib turadi, bu til evolutsiyasining yangi bosqichi. Maqsad va vazifalar bajarildi, asosiy natija – o‘zbek tilidagi mahalliy xususiyatlarning aniqlanishi. Takliflar: tilshunoslar ijtimoiy tarmoqlarni ko‘proq o‘rgansin, ta’limda raqamli til haqida kurslar kiritilsin. Kelajak tadqiqotlari – psixolingvistik ta’sir va tilni saqlash strategiyalari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

[1]. Kristal D. Internet Linguistics. Routledge. London, 2011, 200-bet.
[2]. Linguistic features influencing information diffusion in social networks. Science Direct, 2025.
[3]. Linguistic Features of Internet Texting in Uzbek Language. eipublication.com, 2025, 20-bet.
[4]. The Internet Language of Uzbekistan. Between Tradition and Innovation. cajlpc.casjournal.org, 2025.
[5]. Patterns of linguistic simplification on social media platforms over time. PNAS, 2021, 15-bet.
[6]. The Analysis of the Spread of English Borrowings on Uzbek Social Media. grnjournal.us, 2025.

Atajanov Sherzod Shanazarovich (Xorazm Ma’mun akademiyasi mustaqil izlanuvchisi),
Ruzmetova Dilbar Atabayevna (Urganch davlat Tibbiyot instituti “O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ETNIK-MADANIY ANTROPONIMIK BOLALAR OBRAZLARI

Annotatsiya. *O‘zbek va nemis xalqlarining antroponimik tizimida bolalar obrazlari turlicha shakllangan bo‘lsa-da, ular umumiy jihatdan xalqning tarixiy-madaniy taraqqiyotini, diniy e’tiqodlarini va ijtimoiy hayotini ifodalaydi. O‘zbek madaniyatida bolaga ism berish jarayoni ko‘proq diniy va ma’naviy qad-*

riyatlarga asoslangan bo'lsa, nemis jamiyatida bu jarayon xristian dini, mifologik an'analar va zamonaviy sotsiokultural jarayonlar bilan chambarchas bog'langan.

Kalit so'zlar: *nemis tili, o'zbek tili, etnik, antroponimik, bolalar obrazlari, ism.*

Атаджанов Шерзод Шаназарович (научный исследователь Хорезмской академии им. Мамуна), Рузметова Дилбар Атабаевна (старший преподаватель кафедры языков, узбекского языка и литературы Ургенчского государственного медицинского института)

ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ АНТРОПОНИМИЧЕСКИЕ ДЕТСКИЕ ОБРАЗЫ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Хотя образы детей в антропонимической системе узбекского и немецкого народов формируются по-разному, в целом они отражают историко-культурное развитие, религиозные верования и социальную жизнь народов. В узбекской культуре процесс наречения ребенка в большей степени основан на религиозных и духовных ценностях, тогда как в немецком обществе этот процесс тесно связан с христианской религией, мифологическими традициями и современными социокультурными процессами.*

Ключевые слова: *немецкий язык, узбекский язык, этнический, антропонимический, детские изображения, имя.*

Atajanov Sherzod Shanazarovich (Researcher at the Mamun Khorezm Academy), Ruzmetova Dilbar Atabaevna (Senior Lecturer at the Department of Languages, Uzbek Language, and Literature at the Urgench State Medical Institute)

ETHNOCULTURAL ANTHROPONYMIC CHILDREN'S IMAGES IN THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. *Although the images of children in the anthroponymic systems of the Uzbek and German peoples are formed differently, they generally reflect the historical and cultural development, religious beliefs, and social life of these peoples. In Uzbek culture, the process of naming a child is largely based on religious and spiritual values, whereas in German society, this process is closely linked to the Christian religion, mythological traditions, and modern sociocultural processes.*

Key words: *German language, Uzbek language, ethnic, anthroponymic, children's images, name.*

Kirish. Bola ismlarida etnik-madaniy qadriyatlarning namoyon bo'lishida bolalarga qo'yilgan ismlar xalqning milliy xususiyatlari, madaniy qadriyatlari va urf-odatlari o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, o'zbek madaniyatida "Umid", "Dilshod", "Orzibek", "Saodat" kabi ismlar ota-onaning kelajakka bo'lgan orzu -umidlarini ifodalasa, nemis madaniyatida "Friedrich" (tinchlik hukmdori), "Wolfgang" (bo'ri yo'lboshchisi), "Heidi" (uy, vatan ramzi) kabi ismlar ramziy ma'noga ega bo'lib, qadimiy mifologik va diniy qarashlarning izlarini aks ettiradi.

Demak, bolalar antroponimlari orqali milliy va etnik tafakkur tizimini, xalqning lingvomadaniy xotirasini o'rganish mumkin. Bu esa nemis va o'zbek tillarini qiyosiy jihatdan tadqiq qilishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu faslda quyidagi metodlardan foydalaniladi:

1) qiyosiy-tarixiy metod – nemis va o'zbek bolalar ismlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini taqqoslash uchun;

2) lingvomadaniy tahlil – ismlarning semantik, ramziy va madaniy qatlamlarini ochish uchun;

3) sotsiollingvistik yondashuv – ism qo'yish jarayoniga jamiyat, din, siyosat va media ta'sirini aniqlash uchun;

4) folklorshunoslik yondashuvi – bolalar folklori, ertaklar va qo'shiqlarda ismlarning obraz sifatida qo'llanishini tahlil qilish uchun.

Shuningdek, tadqiqotda R.Müller (2009), A.Beringer (2017), N.Rahmonov (2005), A.Qodirov (2010), A.Anderson (2015) kabi olimlarning onomastikaga oid ishlari ham tahliliy manba sifatida qo'llanildi.

Antroponimlarda bolalar obrazining nazariy asoslari. Antroponimika inson ismlari tizimini o'rganadigan soha bo'lib, unda bola ismlarining alohida mavqeini ko'rish mumkin. Chunki bola ismlari jamiyatning kelajak tasavvurini belgilaydi, ota-onaning ezgu orzulari va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Shu bois bola ismlarini tadqiq etish, aslida, jamiyatning etnik-madaniy manzarasini a bo'linadi:

1) diniy-ma'naviy asos: Qur'on, Injil, boshqa diniy manbalardan kelib chiqqan ismlar;

2) etnik-madaniy asos: mifologik, tarixiy, ijtimoiy va oilaviy motivlar asosida yaratilgan ismlar.

Bu borada A.V.Superanskaya shunday yozadi: "Ismlar xalqning etnolingvistik xotirasi bo'lib, ular orqali biz tarixiy davrlarning ruhini sezamiz".

Bola ismlarining ramziy va funksional xususiyatlari. Ismlar nafaqat shaxsni belgilovchi nominativ birlik, balki madaniy kod sifatida ham amal qiladi. Bola ismlari, odatda, quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Identifikatsion vazifa – bolaning jamiyatdagi shaxsiy o‘rnini belgilash.
2. Madaniy-milliy vazifa – xalqning diniy, milliy va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalash.
3. Ramziy-semantik vazifa – ota-onaning orzu-umidlari va ijobiy tilaklarini anglatish.

Masalan, o‘zbek tilidagi Umid, Saodat, Xursandoy ismlari ota-onaning baxt va shodlik istagini bildirsa, nemis tilidagi Friedrich (“tinchlik hukmdori”), Heidi (“vatan”), Wolfgang (“bo‘ri yo‘lboshchisi”) kabi ismlar tarixiy-mifologik ramzlarni o‘zida aks ettiradi.

O‘zbek va nemis bola ismlarining umumiy nazariy qiyosi. Nemis va o‘zbek bola ismlarida umumiylik va farqlarni ko‘rish mumkin.

Umumiyliklar: diniy manbalardan olingan ismlarning mavjudligi (Yusuf/Josef, Maryam/Maria, Yahyo/Johannes).

Farqlar: o‘zbek madaniyatida ismlar ko‘proq ijtimoiy-diniy qadriyat bilan bog‘langan, nemis madaniyatida esa mifologik va tarixiy asoslar ustun.

Bu holatni X.Drossard shunday izohlaydi: *“Nemis antroponimiyasida bolalar ismlari tarixiy-mifologik qatlamlarni saqlagan bo‘lsa, Sharq xalqlarida ular diniy-ma’naviy mazmunni yetkazuvchi vosita sifatida yashab kelmoqda”* [3:117-b.].

Demak, bola ismlari antroponimika tizimining asosiy qatlami hisoblanadi. Ular milliy-madaniy kod sifatida xalqning etnik tafakkurini aks ettiradi. Nemis va o‘zbek bola ismlarining o‘rganilishi qiyosiy lingvomadaniy tadqiqotlar uchun muhim asos yaratadi.

Nemis tilida bola ismlarining shakllanishi va rivoji. Nemis bola ismlari ham, asosan, uch manbaga tayanadi:

1. Xristian dini manbalari – Injildan kirib kelgan Johannes, Maria, Joseph, Elisabeth kabi ismlar bolalar ismlarining eng qadimiy qatlamini tashkil qiladi. Bu ismlar nafaqat diniy mazmun, balki axloqiy qadriyatlarni ham ifodalagan.
2. German-mifologik qatlam – qadimiy german qahramonlari, tabiat kuchlari bilan bog‘liq ismlar: Wolfgang (“bo‘ri yo‘lboshchisi”), Siegfried (“g‘alaba orqali tinchlik”), Heidi (“vatan”) va boshqalar.
3. Zamonaviy global tendensiyalar – ingliz va boshqa Yevropa tillaridan kirib kelgan ismlar: Kevin, Justin, Mia, Sophie kabi nomlar.

Bu jarayon haqida R.Socin ta’kidlaydi: *“Nemis onomastikasi diniy asosdan boshlangan bo‘lsa-da, uning taraqqiyoti zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarini aks ettirib keladi”* [3;89-b.].

O‘zbek tilida bola ismlarining tarixiy qatlamlari. O‘zbek bola ismlari ko‘p qatlamli bo‘lib, ularni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1) Qur’oniy-diniy ismlar – Muhammad, Ali, Hasan, Husayn, Maryam, Zaynab va h.k. Ular o‘zbek antroponimik tizimining eng muhim asosini tashkil etadi;

2) turkiy-milliy ismlar – Alp, Barchin, Turg‘un, To‘lqin kabi nomlar xalqning tarixiy va ijtimoiy hayotidan o‘rin olgan;

3) fors-tojik ismlari – Gulnoza, Dilshod, Farrux, Jamshid kabi ismlar o‘zbek bola ismlarida estetik va poetik qatlamni hosil qilgan;

4) mahalliy xalqona ismlar – Umid, Saodat, Xursandoy, O‘g‘ilbek, Oydinoy. Ular ota-onaning tilak va orzularini ifoda etgan.

Bu borada A.Madrahimov yozadi: *“O‘zbek antroponimikasi tarixiy-diniy qatlamni milliy-madaniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan holda shakllangan”* [4;203-b.].

Diniy va ijtimoiy omillarning bola ismlariga ta’siri. Ismlar tanlanishida diniy, ijtimoiy va siyosiy omillar muhim o‘rin tutadi:

1) nemis jamiyatida katolik va protestant cherkovlari tarixan bola ismlarini belgilashda asosiy rol o‘ynagan. Hozirda esa ijtimoiy moda va global madaniyat kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda;

2) o‘zbek jamiyatida esa Qur’oniy va diniy asosdagi ismlar hanuzgacha eng mashhur bo‘lib, zamonaviy davrda ham diniy ismlar ustunlik qilmoqda. Shu bilan birga, siyosiy tarix (masalan, Mustaqillik davri) bilan bog‘liq ismlar ham shakllanmoqda (Mustaqim, Ozodbek).

A.Kalverkämper bu masalani quyidagicha izohlaydi: *“Ismlar nafaqat shaxsni belgilash, balki diniy va ijtimoiy kontekstni ham ifodalaydi, shu sababli ular etnik-madaniy identitetning muhim belgilaridan biridir”* [2;54-b.].

Nemis va o‘zbek bola ismlarida etnik-madaniy belgilar. Nemis va o‘zbek bola ismlarida quyidagi belgilar kuzatiladi:

Xulosa qilib aytganda, globalizatsiya har ikki jamiyatda ismlar tizimini universallashtirmoqda, ammo jarayonlar har xil yo‘nalishda kechmoqda: nemislarda amerikalashuv, o‘zbeklarda turkiylashuv va globallashuv uyg‘unlashmoqda. Media va adabiyot bola obrazlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biriga aylandi. O‘zbek va nemis ismlarida milliy-madaniy kodlar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning zamonaviy talqini jamiyatdagi yangi qadriyatlarni ham ifoda etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). А.В.Суперанская Современный словарь личных имён. 2005, с. 41.

(2). Mahmudov N. O‘zbek ismlari tarixi. Toshkent, 2008.

(3). Holmatov A. O‘zbek antroponimikasining asosiy bosqichlari. Toshkent, 2010.

(4). Yo‘ldoshev M. (2021). Til va madaniyat: antroponimik birliklarning konseptual tahlili. Toshkent, “Fan” nashriyoti.

(5). Qosimov T. (2015). Turkiy mifologiyada shaxs nomi va semantik kod. “Sharq tillari va madaniyati” jurnali, 7(3), 120–136-betlar.

(6). Атажанов Ш.Ш. (2023). Немис тили фразеологик ибораларининг таркибий вариацияси. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(4), p. 110–112.

Xakimov Qo‘chqarboy Muxtarjonovich (Universty of ecanomic and pedagogy NOTM, “O‘zbek va rus tili” kafedrasi dotsenti v.b.)

LINGVOPOETIKADA AYRIM LINGVISTIK OMILLAR

Annotatsiya. *Maqolada poetik nutqning ritmik-sintaktik va ekspressiv xususiyatlari lingvopoetika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Poetik nutqni prozaik nutqdan farqlovchi ritm, vazn, sintaktik qurilmalar hamda fonopoetik vositalarning o‘rni yoritiladi. Shuningdek, muallif sintaksisining individualligi va ekspressivlikning poetik nutqdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, poetik nutq, ritmik-sintaktik xususiyatlar, muallif sintaksisi, ekspressivlik, emotsionallik, fonopoetika, poetik ritm, sintaktik poetika, badiiy ifoda.*

НЕКОТОРЫЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ЛИНГВОПОЭТИКЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются ритмико-синтаксические и экспрессивные особенности поэтической речи с позиций лингвопоэтики. Освещается роль ритма, метра, синтаксических конструкций и фонопоэтических средств как основных отличительных признаков поэтической речи. Также анализируется индивидуальность авторского синтаксиса и значение экспрессивности.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, поэтическая речь, ритмико-синтаксические особенности, авторский синтаксис, экспрессивность, эмоциональность, фонопоэтика, поэтический ритм, синтаксическая поэтика, художественное выражение.*

SOME LINGUISTIC FACTORS IN LINGUOPOETICS

Annotation. *The article emphasizes that poetic speech, on the one hand, fulfills the aesthetic functions of linguistic and speech units, and on the other hand, plays a significant role in expressing the author's individual thoughts and emotions. Linguopoetics also stands out as a field that helps to study the creative and emotional impact of poetic speech.*

Key words*: Linguopoetics, poetic speech, rhythmic-syntactic features, authorial syntax, expressiveness, emotionality, phonopoetics, poetic rhythm, syntactic poetics, artistic expression.*

Kirish (Introduction). Poetik nutqning ritmik-sintaktik xususiyatlari uni prozaik nutqdan farqlovchi asosiy belgilardan biri hisoblanadi va vazn o‘lchovlariga solinganligi bilan ajralib turadi. Bu o‘lchov poetik nutq ritmini yuzaga keltiradi. Gap ko‘rinishidagi qurilmalarda (misra yoki baytlarda) bo‘laklarning ohangdoshligi va bir maromda aytilishi sintaktik birliklarning shakllanishini belgilaydi. Shu yo‘l bilan poetik nutqda ta’sirli ohang hosil qilinadi, bunda fonopoetik vositalarning o‘rni katta bo‘ladi. Lingvopoetika doirasida tadqiq etiladigan asosiy muammolardan biri muallif asarlarining sintaktik o‘ziga xosligi masalasidir. Muallifning til birliklarini shakllantirish mahorati uning o‘ziga xos sintaktik uslubiyatini belgilaydi. Sintaktik poetika bevosita muallif ifoda imkoniyatlariga ta’sir qiladi. Faqat sintaktik tadqiqotlar bilan muallifning tilning sintaktik qurilishiga qanchalik yangilik olib kirgani, yangi shakldagi lisoniy birliklar bera olganligini aniqlash mumkin bo‘ladi. G.O.Vinokur ta’biri bilan aytganda, “muallifning til xususiyatlaridagi o‘zgarishlarni muntazam kuzatib borish maqsadga muvofiqdir, chunki taniqli ijodkorlarning o‘ziga xos evolutsiyasidagi o‘zgarishlar til evolutsiyasidagi o‘zgarishlar demakdir”. Shuning uchun ham muallif tilining individualligini tahlil qilish lingvopoetik kategoriya sifatida muallif sintaksisining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.